



**AHMAD HOSHIYNING “JAVOHIR UL-BALOG‘A” ASARIDA JUMLA  
INSHOIYYANING EMOTSIONAL VA NUTQIY IFODA VOSITASI  
SIFATIDA QO‘LLANILISHI**

**Zayniddin Hanifa Hasan**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Arabshunoslik oliy maktabi

Magistratura 1-kurs lingvistika(arab) guruhi talabasi

Tel: (94) 663-13-83, E-mail: [hanifa.zayniddin@gmail.com](mailto:hanifa.zayniddin@gmail.com)

Ilmiy rahbar: Dots.

**Begmatova Buzahro**

**Annotatsiya**

Mazkur maqola arab balog'at ilmining muhim tushunchalaridan biri bo'lmish jumla inshoiyyaning — ya'ni o'ziga nisbatan rostlik yoki yolg'onlik hukmi berilmaydigan gap turining — nutqiy va emotsional ifoda vositasi sifatidagi ko'p qirrali tabiatini Ahmad Hoshimiyning "Javohir ul-balog'a" asari asosida ilmiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan.

Maqolada jumla inshoiyya ikki asosiy turga — talabiy va g'oyri talabiy insho'ga — bo'linishi nazariy jihatdan asoslanib, talabiy inshoiyyaning beshta shakli: buyruq (الأمر), inkor (النهي), so'roq (الاستفهام), orzu-istak (التمني) va undov (النداء) alohida-alohida ko'rib chiqilgan. Har bir tur uchun birlamchi (lug'aviy) ma'nolar bilan bir qatorda ikkilamchi (balog'iy) ma'nolar ham keng tahlil qilingan: buyruq gapdan duo, iltimos, maslahat, tahdid va ta'jub anglanishi; inkor gapdan g'amxo'rlik, orzu-istak va tahqirlash ifodalanishi; so'roq gapdan taqrir, tasviya, tashviq va masxaralash kabi ma'nolar kelib chiqishi misollar orqali isbot etilgan.

**Tayanch so'zlar:** jumla inshoiyya, talabiy insho, balog'at ilmi, buyruq gap, inkor gap, so'roq gap, orzu-istak, undov, ikkilamchi ma'no, Ahmad Hoshimiy, arab tili pragmatikasi.

إنشاء so'zi lug'atda “tuzish”, “bino qilish”, “ijod qilish” kabi ma'nolarni anglatadi. Ma'oniylarda esa bu so'z jumlaning ikkinchi turiga nisbatan qo'llaniladi va u jumla al-inshoiy deb ataladi. Ahmad Hoshimiy unga quyidagicha ta'rif beradi<sup>1</sup>:

ما (الكلام) لا يَحْتَمِلُ الصِّدْقَ وَالْكَذِبَ إِذَاتِهِ – *rostlik yoki yolg'onlik hukmi berilmaydigan kalom.*

<sup>1</sup> أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 69



Inshoiy gap soʻzlovchi nutqidagina hosil boʻladi: biror kishiga لا تَكْتُبْ! (Yozma!) deb buyruq berilsa, bu jumlagi nisbatan rostlik yoki yolgʻonlik hukmi berilmaydi va undan anglashilgan ish-harakat soʻzlovchi uni aytgan vaqtidagina vujudga keladi. Masalan, “افعل” (“qil”) deb amr qilish, “لا تفعل” (“qilma”) deb qaytarish, “ليت” (“koshki”)da istak bildirish, “استفهام” (savol berish)da tushunishni talab qilish, “يا” (“ey!”)da murojaat qilish. Bularning barchasi faqat nutq vaqtida yuzaga chiqadi.

Inshoiy jumla ikki qismga boʻlinadi:<sup>2</sup>

1. الطلبي – “talabiy”
2. غير طلبي – “gʻoyri talabiy” (talabiy boʻlmagan insho)

**Talabiy insho** – talab vaqtida (yaʼni nutq vaqtida) mavjud boʻlmagan narsani vujudga kelishini, mavjud boʻlishini yoki hosil boʻlishini soʻraydigan gapdir. Yaʼni, bu soʻzlovchi tomonidan biror narsani talab qilish yoki tinglovchidan maʼlum javobni kutish maqsadida ishlatiladigan gap shakllaridir. U doimiy ravishda tinglovchiga qaratilgan murojaat boʻlib, **talab** yoki **istak**ni bildiradi. Talabiy inshoiy jumla esa oʻz oʻrnida 5 *xil* boʻladi:

1. الأمر – Buyruq
2. النهي – Inkor
3. الإستفهام – Soʻroq
4. التمني – Orzu-istak
5. النداء – Undov

1. الأمر (**Buyruq**). Arab tili grammatikasida buyruq gap feʼni buyruq mayliga qoʻyish orqali yasaladi. Buyruq feʼllari, asosan, ikkinchi shaxsga qaratilgan boʻladi va u jazm holatidagi feʼning (yaʼni hozirgi-kelasi zamon feʼlining oxirgi harakati sukun holatida boʻlishi) old qoʻshimchasini tushurib qoldirish orqali yasaladi: تُكْمَلُ (tugatyapsan) → تُكْمَلُ → كَمِلْ (tugat). I bob feʼllaridan buyruq mayli hosil qilishda, feʼldagi old qoʻshimcha tushib qolishi natijasida, soʻz boshida bir boʻgʻinda ikki undosh yonma-yon kelib qolishi kuzatiladi. Masalan, I bob كَتَبَ (yozmoq) feʼlida xuddi shu holat kuzatiladi: تَكْتُبُ → تَكْتُبُ → كَتَبَ. Bunday holatni bartaraf etish uchun soʻz boshiga vaslali hamza qoʻshilib boʻgʻin ikkiga ajratiladi. Bunday hamzaning harakati I bob feʼlining oʻrta oʻzagidagi undoshining hozirgi-kelasi zamon harakati bilan belgilanadi. Agar oʻrta oʻzak undoshining harakati ُ (damma) boʻlsa, hamzaning ham harakati shunday boʻladi. Agar oʻrta oʻzak harakati َ (fatha) yoki ِ (kasra) boʻlsa, hamzaning harakati kasra boʻladi<sup>3</sup>.

أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 69.<sup>2</sup>

<sup>3</sup>Abdjabborov A. Arab tili. –T.: “Toshkent Islom Universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. 203-204-betlar.



Birinchi va uchinchi shaxs fe'lidan amr yasalganda, fe'ning jazm shakli oldiga ل qo'shiladi: لِنَكْتُبْ (yozaylik), لِيَجْلِسُوا (o'tirsinar). Aslida, tom ma'noda bu shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri buyruq berilmaydi. Mazkur qoida bilan yasalgan amrdan anglashilgan ma'no esa buyruq emas, balki taklif yoki undov ma'nolarini bildirishi mumkin.

اسمُ فعل الأمر – shaklan ism ko'rinishida ammo, ma'no jihatidan buyruq fe'lini ifodalovchi so'zlar bo'lib, quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: صه، حي، هَلُمَّ، هَيَّا، عَلَيْكَ، آمِينَ (jim bo'l, bo'laqol, kelaqol, qani tezroq, senga farz, omin)

المصدر النائب علي فعل الأمر – masdar noaniq (nakira) va nasb holatda bo'lishi talab etiladi: صَبِرًا (Sabr qil!) (Yordam ber!)

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari المضارع (hozirgi kelasi zamon) fe'li bilan yasalgan jumla orqali ham buyruq ma'nosini bildirish mumkin. Bu holatda jumlada buyruqqa dalolat qiluvchi hech qanday omil ko'rinmasa ham, notiq intonatsiya orqali jumlaning buyruq shakliga o'zgartirishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'z talabalariga vazifa berayotib, سوف تكتبون جميعاً مقالاً للدرس التالي (Keyingi dars uchun barchangiz insho yozib kelasiz.) deb aytgan jumlasida buyruqqa ishora qiluvchi hech qanday omil mavjud ema, ammo kontekstdan uning talabalarga nisbatan buyruq ekanli ma'lum bo'ladi.

Buyruq gapdan anglashilgan birlamchi ma'no tinglovchidan ish-harakatni amalga oshirish majburan talab etilishini anglatadi. Uning ikkilamchi ma'nolaridan ba'zilari quyidagilardan iborat:

I. **Duo.** Qur'oni Karimda kelgan duolarning aksariyati buyruq yoki inkor shaklda kelgan:

﴿فَتَبَسَّمْ ضَاكِحًا مِّن قَوْلِهَا وَقَالَ رَبِّ أَوْزِعْنِي أَنْ أَشْكُرَ نِعْمَتَكَ الَّتِي أَنْعَمْتَ عَلَيَّ وَعَلَىٰ وُلْدِي وَأَنْ أَعْمَلَ صَالِحًا تَرْضَاهُ وَأَدْخِلْنِي بِرَحْمَتِكَ فِي عِبَادِكَ الصَّالِحِينَ﴾ (۱۹)

*Bas, u uning so'zidan tabassum qildi va: «Robbim, meni O'zing menga va ota-onamga bergan ne'matlaringga shukr etishimga va sen rozi bo'ladigan solih amallar qilishimga muyassar etgin. O'z rahmating ila meni solih bandalaringga qo'shgin», dedi<sup>4</sup>.*

II. **Itimos.** Ushbu so'rov shakli so'zlovchi tinglovchi bilan bir xil darajada yoki so'zlovchidan yoshi va maqomi pastroq bo'lgan kishiga nisbatan ishlatilishi mumkin:

أَعْطِنِي القلم أيها الأخ (Birodar, qalamni uzatib yuboring.)  
قف قليلاً لا تغب عني، لا تفارقني، لا تتركني وحيداً، فإني لا أعرف غريك (Bir oz to'xta, meni tark

<sup>4</sup> Shayx Muhammad Sodik Muahmmad Yusuf. Tafsihi Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 4-juz, 296-bet.



etma, meni yolg'iz tashlab ketma, chunki men sendan boshqa hech kimni tanimayman.)<sup>5</sup>

III. **Irshod (maslahat).** Odatda kundalik muloqot jarayonida insonlar bir-birlariga maslahat bersalar, jumlaning tuzilishi buyruq shaklida bo'ladi:

(يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا إِذَا تَدَايَيْتُمْ بِدِينٍ إِلَىٰ أَجَلٍ مُّسَمًّى فَاكْتُبُوهُ ؕ وَلْيَكْتُب بَيْنَكُمْ كَاتِبٌ بِالْعَدْلِ ۗ) (2:282)

*Ey iymon keltirganlar! Ma'lum muddatga qarz oldi-berdi qilgan vaqtingizda, uni yozib qo'ying. Orangizda bir yozuvchi adolat bilan yozsin<sup>6</sup>.*

IV. **Ta'jub.** Bir inson o'z hayratini izhor qilish uchun jumlaning buyruq maylida tuzishi mumkin. Masalan, bir inson o'z do'stining otasiga nisbatan qo'pol munosabatidan hayratga tushib, eshitgan narsasiga ishonolmasdan quyidagicha nido qilishi mumkin: **أَنْظُرْ إِلَىٰ مَا قُلْتَ لَوَالِدِكَ!** (O'z otangga nima deganingga bir nazar sol!)

Yuqorida keltirilgan ma'nolardan tashqari muallif yana ojizlikni izhor qilish, ijozat berish, orzu-istakni bildirish, kamsitish, davomiylik va odobga chaqirish kabi ma'nolarni ham sanab o'tadi.

2. **النَّهْيُ (Inkor).** Bunda tinglovchidan biror narsadan yoki ish-harakatdan voz kechishni (majburan) talab qilish tushuniladi. Inkori gap hosil qilinishi uchun hozirgi-kelasi zamon fe'liga لا yuklamasi qo'shiladi va u ikki xil bo'lishi mumkin:

لا النَّاهِيَةَ (la nahiya) va لا النَّافِيَةَ (la nafiya).

لا النَّاهِيَةَ hozirgi-kelasi zamon fe'liga qo'shilganda fe'ning oxiridagi ن (nun) tushib qoladi: لا تكتبون (yozyapsizlar/yozasizlar - yozmanglar). لا النَّافِيَةَ esa hozirgi-kelasi zamondagi bo'lishli fe'lni bo'lishsiz fe'lga aylantiradi va bunda fe'l ko'rinishida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi: لا تكتبون (yozyapsizlar/yozasizlar – yozmayapsizlar/yozmaysizlar). Bir qarashda bunda inkor ma'nosi emas, shunchaki ish-harakatning amalga oshmasligi haqida xabar berilayotgandek ko'rinishi mumkin. Biroq لا النَّافِيَةَ orqali yasalgan fe'l arab tili grammatikasi nuqtayi nazaridan inkor ma'nosini bermasa ham, balog'iy jihatdan kontekstdan kelib chiqib inkor ma'nosini anglatishi mumkin.

Ba'zida لا النَّافِيَةَ orqali yasalgan fe'ldan anglashilgan buyruq inkor ma'nosi لا النَّاهِيَةَ orqali yasalgan fe'ldan ham kuchliroq, samaraliroq ifodalanishi mumkin. Buni misol bilan ko'rib chiqsak, yana ham tushunarliroq bo'ladi: o'qituvchining talabalariga qarata aytgan gap: لا تتركوا الفصل حتى تسمع رنين الجرس (Qo'ng'iroq ovozi eshitmaguningizcha dars xonasini tark etmang.) Xuddi shu jumla bo'lishsiz fe'l orqali ifodalanib, buyruq

مصطفى لطفي منفلوتي. النظرات. المملكة المتحدة. 2017. ص.48.

<sup>6</sup> O'sha asar. - 1-juz, 281-bet.



## Learning and Sustainable Innovation

inkor ma'nosini ifodalashi mumkin va bundan anglashilgan ma'no, ya'ni o'quvchilarning xonadan chiqmasliklarini talab qilish kuchliroq va ta'sirliroq bo'lishi mumkin: لا تتركون الفصل حتى تسمع رنين الجرس (Qo'ng'iroq ovozi eshitmaguningizcha dars xonasini tark etmaysizlar.)

Inkor ham buyruq kabi kishidan biron-bir narsani talab qilish (inkorda ish-harakatni bajarmaslikni talab qilish) bo'lganligi sababli bu ikkisining ikkilamchi ma'nolari ham bir biriga o'xshab ketadi. Inkor gapdan tushunilishi mumkin bo'lgan ikkilamchi ma'nolar esa quyidagilardan iborat:

I. **Duo.** Xuddi buyruq gap singari inkor ham duo ma'nosini ifodalashi mumkin:

﴿ رَبَّنَا لَا تُؤَاخِذْنَا إِنْ نَسِينَا أَوْ أَخْطَأْنَا رَبَّنَا وَلَا تَحْمِلْ عَلَيْنَا إصْرًا كَمَا حَمَلْتَهُ عَلَى الَّذِينَ مِنْ قَبْلِنَا رَبَّنَا وَلَا تُحَمِّلْنَا مَا لَا طَاقَةَ لَنَا بِهِ ﴾ (2:286)

*Ey Robbimiz, agar unutsak yoki xato qilsak, (iqobga) tutmagin. Ey Robbimiz, bizdan oldingilarga yuklaganga o'xshash og'irlikni bizga yuklamagin. Ey Robbimiz, bizga toqatimiz yetmaydigan narsani yuklamagin<sup>7</sup>.*

II. **Itimos.** Buyruq gap kabi inkorning ushbu so'rov shakli so'zlovchi tinglovchi bilan bir xil darajada yoki so'zlovchidan yoshi va maqomi pastroq bo'lgan kishiga nisbatan ishlatilishi mumkin: يا أخي، لا تتكاسل! إنها حقاً رذيلة سيئة (Ey birodar, dangasa bo'lma! Bahaqqi, bu juda yomon illatdir.)

III. **Irshod (maslahat).** Odatda kundalik muloqot jarayonida insonlar bir-birlariga maslahat bersalar, jumlaning tuzilishi buyruq yoki inkor shaklida bo'lishi kuzatiladi: (Ota-onalar, farzandlaringizga televizorda zo'ravonlik ko'rsatuvlarini ko'rishiga yo'l qo'ymang.)

IV. **Tahqirlash.** Qadimda arab xalqi uchun jasorat, mardlik va boshqa oliyjanob xislatlarga ega bo'lish qabilalar orasida hurmat-e'tibor qozonishga sabab bo'lgan. Umar r.a. davrlarida bir shoirning quyidagi bayti boshqalar tomonidan tahqir, deb qabul qilingan:

وَأَعُدُّ فَاتِّكَ أَنْتَ الطَّاعِمُ الْكَاسِي      دَعِ الْمَكَارِمَ لَا تَرْجُلْ لِبُعَيْتِهَا  
(Oliyjanob fazilatlarni tark et va ular ortidan quvma. Shunchaki o'tir, bahaqqi sen taom yeyuvchi va kiyim kiyuvchisan.)

V. **Orzu-istak.** Arab she'riyatida inkor orqali orzu-istak ifodalanishi ko'p kuzatiladi:

يَا لَيْلَةَ الْأُنْسِ لَا نَنْقُضِي

<sup>7</sup> Shayx Muhammad Sodik Muahmmad Yusuf. Tafsihi Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 1-juz, 291-bet.



(Ey sevgi kechasi, tugab qolma!)  
يا صَبِيحُ قَفِّ لا تَطْلُعُ يا لَيْلُ طُلِّ يا نَوْمُ زُلِّ  
(Ey tun, uzunlash! Ey uyqu, uzoqlash!  
Ey tong, to'xta, yorishma! )

Berilgan ikki she'riy jumalarda buyruq hamda inkor orqali shoirning tunni uzunroq davom etishini orzu qilishi, ushalmas istagi ifoda etilgan. Bunda tinglovchiga ayon bo'ladiki, tun, uyqu va tongga to'g'ridan-to'g'ri buyruq berishning imkoni yo'q va ular tabiiy sodir bo'luvchi tabiat hodisalaridir va shu sababdan ularga qarata talab qilingan ish-harakat (*tugab qolma, uzunlash, uzoqlash, to'xta, chiqma*) shoirning ushalmas orzu-istagidir, xolos.

VI. *I'tinas (G'amxo'rlik)*. Bu ma'no quyidagi oyati karimada o'z aksini topishini ko'rishimiz mumkin:

﴿ إِذْ هُمَا فِي الْغَارِ إِذْ يَقُولُ لِصَاحِبِهِ لَا تَحْزَنْ إِنَّ اللَّهَ مَعَنَا ﴾ (9:40)

*Ular ikkovlon g'orda turganlarida, u sherigiga, xafa bo'lma, Alloh, albatta, biz bilan, dedi*<sup>8</sup>.

**3. الإِسْتِفْهَام (So'roq)**. So'roq jumla orqali so'zlovchi tinglovchidan o'ziga noma'lum bo'lgan narsa yoki voqea-hodisa haqida ma'lumot olishni maqsad qiladi. Arab tili grammatikasida so'roq gaplar quyidagi so'roq so'zlari (yuklamalari) orqali hosil qilinadi:

أ، هل، ما، متى، أيان، كيف، أين، أتي، كم، أي

Ahmad Hoshimiy so'roq gapni uch turga ajratadi<sup>9</sup>:

- Tasvirlash yoki tasdiqlash talab qilinadigan so'roq gap bo'lib, u ا (hamza) yordamida yasaladi;
- Faqat tasdiqlash talab etiladigan so'roq gap bo'lib, هل so'roq yuklamasi orqali yasaladi;
- Faqat tasvirlash talab etiladigan so'roq gap bo'lib, ما، متى، أيان، كيف، أين، أتي، كم، أي so'roq olmoshlari orqali yasaladi;

Shu o'rinda tasdiqlash (التَّصْدِيقُ) va tasvirlash (التَّصْوُّرُ) deyishdan nima maqsad qilinishiga izoh berib ketilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar berilgan savolga "ha" yoki "yo'q" javobi talab etilsa, bu so'roq gap التصديق hisoblanadi. Masalan,

هل أنت طالب؟ (Sen talabamisan?) Bu savolga faqatgina "ha" yoki "yo'q" deb javob berish mumkin va shu sababdan u tasdiqlashni talab etuvchi so'roq gap hisoblanadi.

<sup>8</sup> Shayx Muhammad Sodik Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 2-juz, 528-bet.

<sup>9</sup> أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 78.



التَّصَوُّر so‘roq gapda esa, berilgan savolga aniqlik kiritilgan holda tasvirlash orqali javob berish talab etiladi. Misol uchun, biror kishi أحمد معلم أم سعيد؟ (Ahmad o‘qituvchimi yoki Saidmi?) deb so‘rasa, unga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish mantiqsizlik bo‘ladi. Balki, savolda so‘ralgan ikki kishidan birini tanlash orqali (Ahmad yoki Said) yoki boshqa inson ismini aytish bilan aniqlik kiritish to‘g‘ri javob sifatida olinadi.

E’tiborli yana bir jihat shuki, balog‘at ilmidan farqli ravishda hozirgi zamonaviy arab tili grammatikasida التَّصَدِيق so‘roq gap ا (hamza) bilan ham, هل so‘roq yuklamasi orqali ham yasalishi mumkin va ular o‘rtasida hech qanday ma’noviy farq sezilmaydi:

- أنت طالب؟ (Sen talabamisan?)
- هل أنت طالب؟ (Sen talabamisan?)

Bundan tashqari bu ikki so‘roq yuklamasidagi nozik nuqtaga e’tiborimizni qaratsak, hozirgi kelasi zamon fe’lidan oldin ا (hamza) yuklamasi kelsa, gapdan anglashilgan ma’no aynan hozirgi zamonga, هل yuklamasi kelsa esa, kelasi zamonga dalolat qiladi:

- أَتَسَافِرُ إِلَى طَشَقَنْدِ؟ (Toshkentga ketyapsanmi?)
- هَلْ تُسَافِرُ إِلَى طَشَقَنْدِ؟ (Toshkentga borasanmi?)

ا (hamza) so‘roq yuklamasi orqali yasalgan التَّصَدِيق so‘roq gap balog‘atshunos olimlar tomonidan kuzatilganda ismiy jumlagga nisbatan fe’liy jumlada ko‘proq qo‘llanilar ekan. Odatda, tasdiqni talab qiluvchi so‘roq gapda أم (yoki) yuklamasi ishlatilmaydi. Chunki tanlov berish orqali tasvirlashni talab qilish va shu orqali أم (yoki) yuklamasini ishlatish التَّصَوُّر so‘roq gapiga xos jihat hisoblanadi. Shunga qaramasdan, arab klassik asarlarida التَّصَدِيق so‘roq gap ichida أم (yoki) yuklamasi qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ammo, uning ma’nosi “yoki” emas, “balki”ga o‘zgaradi:

ولست أبا لي بعد فقدي مالكا أموتي ناء أم هو الان واقع<sup>10</sup>

*Malikni yoqotganimdan so‘ng menga endi baribir,*

*O‘limim uzoqmi, (yo‘q) balki u hozir sodir bo‘lyapti.*

Quyida berilgan baytning ikkinchi misrasiga e’tibor beraylik: أموتي ناء أم هو الان واقع

U ا (hamza) so‘roq yuklamasi yordamida yasalgan التَّصَدِيق so‘roq gap hisoblanadi va أم (yoki) yuklamasi ishlatilib, jumla davom ettirilgan. Bir qarashda uning gapidan shunday ma’no anglashilishi mumkin: (*O‘limim uzoqmi yoki hozir sodir bo‘lyaptimi?*) Ammo aytib o‘tganimizdek, أم bu yerda بَلْ (balki) ma’nosida kelib, undan oldin berilgan savolga javob tariqasida keladi. Shoir avval o‘ziga savol bermoqda: أموتي ناء (*O‘limim uzoqmi?*) va uning ketidan esa o‘zi shu savolga (yo‘q, balki u

أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 79<sup>10</sup>



hozir sodir bo'lyapti) deya javob bermoqda.

Faqaatgina tasvirlash talab etiladigan so'roq gaplar *أي، كم، أئى، أين، كيف، أيان، متى، من، ما* so'roq olmoshlari orqali yasalishi yuqorida ma'lum bo'ldi.

So'roq gapning birlamchi ma'nosi kishining o'zi bilmagan biror narsa haqida ma'lumot olishi maqsad qilib olinishi bo'lsa, uning ikkilamchi ma'nolari quyidagilardan iborat:

I. **Buyruq.** Ba'zida o'zaro muloqot jarayonida bir ishni qilmaslikka chaqirish, undash va buyruq berish maqsadida gapni so'roq shaklida tuzish mumkin: *هل ستستمر في تناول الطعام المحرم؟* (Taqiqlangan taomlarni eyishni davom ettirasizmi?) Bu yerda savol berishdan maqsad rostdan ham kishining harom luqmani yeyishda davom etishini bilish emas, balki shu ishda davom ettirmaslikka chaqirishdir: *قف عن تناول الطعام المحرم* (Harom taom yeyishdan to'xta!)

II. **Tashviq (التشويق).** so'zi *شوق* fe'lining masdari hisoblanib, "insonda qiziqish uyg'otish" ma'nosini bildiradi. Masalan, *هل أدلك على تجارة الأفضل التي ستحقق لك النجاح؟* (Sizga muvaffaqiyat keltiradigan eng yaxshi tijoratga yol ko'rsataymi?) jumlasida so'zlovchining asosiy maqsadi uni tinglayotgan insonni qiziqtirish va ko'zda tutilgan narsaga jalb qilishdan iborat. Bunday so'roq gaplar savdo-sotiq jarayonida iste'molchilarni jalb qilish maqsadida keng qo'llaniladi.

III. **Masxaralash (التهكم).** Bir insonni kamsitish maqsadida so'roq gap ishlatilishi mumkin:

*أعقلك يسوع لك أن تفعل كذا؟* (Aqling seni shunday qilishga yo'l qo'ydimi?) Jumlada keltirilgan savol orqali bir insonni yerga urib, uni kaltafahm deya masxaralash asosiy maqsad qilib olinganligi kontekst orqali tinglovchiga ayon bo'ladi.

Bundan tashqari, so'roq gaplar *qo'rqitish, tahdid qilish, tanbeh berish, tahqirlash, istehzo qilish, kinoya, tushunishga harakat qilish (الإستنباط), afsus-nadomat* kabi ikkinamchi ma'nolarni ham bildirishi mumkin.

4. **Orzu-istak (التمني).** Inshoiy gapning keyingi turi bu ushali kutilmaydigan orzu-istak hisoblanadi. Ahmad Hoshimiy o'z asarida *التمني* ni amalga oshish-oshmasligi ehtimoliga qarab ikki turga bo'lgan:

a) hech qachon amalga oshmaydigan orzu-istak (*مستحيل*)

Misol uchun, quyidagi baytda shoir yoshligi qaytib kelishini orzu qilishini bayon qiladi va barchaga ma'lumki, buning aslo iloji yo'q:

*ألا ليت الشباب يعود يوماً فأخبره بما فعل المشيب<sup>11</sup>*

*Eh, qani endi yoshlik bir kun qaytib kelsa,*

أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 87. <sup>11</sup>





b) uzoqqa nisbatan: آ، آي، آيا، هيا، وآ

Ba'zida uzoqdagi shaxs yoki narsaga nisbatan ham ا (hamza) qo'llanilishi mumkin. Masalan, ushbu ikki misrada shoir aslida uzoqda joylashgan Nu'mon al-Arok nomli qishloqqa nisbatan nido qila turib, ا ni (hamzani) ishlatadi:

أَسْكَانَ نُعْمَانَ الْأَرَكَ تَبَقُّوا بِأَنْكُمْ فِي رَبْعِ قَلْبِي سَكَّانٌ<sup>14</sup>

*Nu'mon al-Arok aholisi, ishonin!*

*Siz mening yuragimning bir qismida yashaysiz.*

Bundan ko'zlangan maqsad, nido qilinayotgan shaxs yoki narsa qanchalar uzoqda bo'lmasin, u so'zlovchi uchun qalban yaqin ekanligiga ishora qilishdir. Xuddi shunday, yaqinda joylashgan shaxs yoki narsaga nisbatan يَأْيُهَا kabi undov yuklamalari ishlatilishi ham mumkin. Bunday qilish sabablaridan biri, so'zlovchi oldidagi shaxs yoki narsa qanchalar yaqin bo'lmasin, u hayolan boshqa zamon va makonda bo'lishi yoki so'zlovchi nutqiga unga nisbatan beparvolik munosabati ifoda etgan bo'lishi mumkin. O'rta asr arab shoiri Al-Barudiy tomonidan yozilgan quyidagi baytda ham يَأْيُهَا yuklamasi yaqindagi shaxsga nisbatan ishlatilgan:

يَأْيُهَا السَّادِرُ الْمُرَوَّرُ مِنْ صَلْفٍ مَهْلًا، فَإِنَّكَ بِالْأَيَّامِ مُنْخَدِعٌ

*O'z qadr-qimmatini bilan aldangan g'ofil, sekinla!*

*Chunki bu kunlar bilan aldanib qolgan kishisan.*

Undov gapdan ko'zlangan ma'no nafaqat bir inson yoki predmetga nisbatan chaqiriq ma'nosida, balki yana bir qancha ikkilamchi ma'nolarda ham qo'llanilishi kuzatiladi va ularni berilgan kontekst orqali tushunish mumkin<sup>15</sup>:

I. **Ilhomlantirish (الإغراء).** Undov bir shaxsni yoki biror jamoani ruhlantirish va ularda kuchli his-tuyg'ularni uyg'otish uchun ham keng qo'llaniladi. Bu turdagi chaqiruv, asosan, harbiy yurish oldidan askarlarni ruhlantirish uchun harbiy boshliqlar yoki davlat prezidenti tomonidan o'z xalqiga qilgan murojaatlarida keng va samarali qo'llaniladi. Quyida AQSHning sobiq prezidenti Jon Kennedining Vashingtondagi Inauguratsiya nutqidan (saylangan prezidentning qasamyod qabul qilish marosimidan keyingi nutqidan) parcha keltirilgan:

ولذلك، يا زملائي الأميركيين: لا تسألوا عما يمكن أن يفعله بلدكم من أجلكم، بل اسألوا ما الذي يمكنكم أن تفعلوه من أجل بلدكم<sup>16</sup>

(Shunday qilib, mening Amerikalik birodarlarim: mamlakatingiz siz uchun nima qila

<sup>14</sup> أحمد حاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبديع. بيروت لبنان. 2004. ص. 89

<sup>15</sup> أحمد حاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبديع. بيروت لبنان. 2004. ص. 90

<sup>16</sup> RG274, records of the White House Signal Agency. John F. Kennedy Presidential Library and Museum, Boston, Massachusetts.



## Learning and Sustainable Innovation

olishini so‘ramang - mamlakatingiz uchun nima qila olishingizni so‘rang.)

II. **Hasrat (النَّدْبَة).** Bu ma‘no, asosan, marsiyalarda ifodalanib, kishi vafot etgan yaqin insonini chaqirishi, unga xitob qilishida kuzatishimiz mumkin. Nafaqat marsiya, balki kishining biror sabab tufayli mahzun bo‘lishi ham hasratni ifoda etishi mumkin. Yuqorida keltirilgan undov yuklamalaridan وَأْ yuklamasi ushbu ma‘noda ko‘proq qo‘llaniladi:

فوا عَجَبًا كم يَدَّعِي الْفَضْلَ نَاقِصٌ      وَا أَسْفًا كم يَظْهَرُ النَّقْصَ فَاضِلٌ  
*Vo ajabo! Qancha ahmoqlar buyuk fazlga da'vo qiladilar.*  
*E afsus, qancha buyuklar noqislikni izhor qiladilar.*

III. **Afsus-nadomat.** Undovning ushbu ma‘noda ishlatilishi aksariyat hollarda inson o‘z qilmishidan afsus qilishi tufayli o‘z-o‘ziga murojaat qila turib nido qilishida kuzatiladi: يا لَيْتَنِي كُنْتُ حَذْرًا فِي كَلَامِي (E voh! Qani endi gapimda ehtiyotkor bo‘lsam edi!)

Yuqorida sanab o‘tilgan ma‘nolardan tashqari undov gap yordam so‘rash, taajjublelanish, tanbeh berish, yodga olish, faxr va madh qilish kabi ikkilamchi ma‘nolarda ham qo‘llanilishi mumkin.

## XULOSA

Arab balog‘at ilmida jumla inshoiyya — rostlik yoki yolg‘onlik hukmi berilmaydigan gap turi — nutqiy muloqotning eng ta‘sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Ahmad Hoshimiyning "Javohir ul-balog‘a" asari asosida tahlil qilingan ushbu maqola shuni ko‘rsatadiki, buyruq, inkor, so‘roq, orzu-istak va undov kabi inshoiy gap shakllari faqat grammatik hodisa bo‘lib qolmay, balki so‘zlovchining his-tuyg‘ularini, niyatini va munosabatini ifodalashning serqirra balog‘iy vositasiga aylanadi.

Har bir inshoiy gap turi o‘zining birlamchi ma‘nosidan tashqari — duo, iltimos, tahdid, maslahat, taajjub, hasrat, orzu va shu kabi — o‘nlab ikkilamchi ma‘nolarni anglatishi mumkin. Bu ma‘nolar faqat kontekst, intonatsiya va nutqiy vaziyat orqali to‘liq ochiladi. Qur‘oni Karim oyatlari va klassik arab she‘riyatidan keltirilgan misollar ushbu ko‘p ma‘nolilik hodisasining qanchalik chuqur ildiz otganligini yaqqol isbotlaydi.

Shunday qilib, jumla inshoiyya arab tilida nafaqat grammatik, balki psixologik va pragmatik jihatdan ham boy bo‘lgan nutqiy hodisa sifatida o‘zining alohida o‘rnini saqlab kelgan va balog‘at ilmini o‘rganishda unga e‘tibor qaratish zarurati bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. علي جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البديع. القاهرة. 1999.
2. أحمد حاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبديع. بيروت لبنان. 2004.
3. القرآن الكريم. مدينة العبور. 2001.



4. Shayx Muhammad Sodiq Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I J. –Namangan: Ibrat, 2009.
6. Abdul-Raof Hussein. Arabic Rhetoric: A Pragmatic Analysis. USA and Canada: - Routledge, 2006.